



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-aprel oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(67) 236-70-00*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-aprel oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 202,4 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 83,0 mln. AQSH dollariga yoki 29,1 % ga kamaygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **202,4** **-29,1** %
(2023- y.: **285,5**)



Saldo

2024- y.: - **28,5** (2023 y.: - **43,6**)



Eksport

2024- y.: **87,0** **-34,0** %
(2023- y.: **120,9**)



Tovarlar: **86,1**



Xizmatlar: **0,9**



Import

2024- y.: **115,5** **-49,1** %
(2023- y.: **164,6**)



Tovarlar: **115,5**



Xizmatlar: -

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 87,0 mln. AQSH dollariga (34,0 % ga kamaydi) va import hajmi 115,5 mln. AQSH dollariga (49,1 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 28,5 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)









Rossiya TSA – 29,2 Eksport: 18,3 Import: 10,9  14,4 %	XXR TSA – 50,1 Eksport: 14,1 Import: 36,0  24,7 %	Afg‘oniston TSA – 36,7 Eksport: 35,4 Import: 1,3  18,1 %	Qozog‘iston TSA – 51,1 Eksport: 5,5 Import: 45,6  25,2 %	Turkiya TSA – 5,9 Eksport: 2,6 Import: 3,3  2,9 %
Ukraina TSA – 2,5 Eksport: 0,4 Import: 2,1  1,2 %	Pokiston TSA – 5,5 Eksport: 4,5 Import: 1,0  2,7 %	Hindiston TSA – 4,4 Eksport: 0,0 Import: 4,4  2,2 %	Tojikiston TSA – 1,8 Eksport: 1,7 Import: 0,1  0,9 %	Qirg‘iz Respublikasi TSA – 1,8 Eksport: 0,8 Import: 1,0  0,9 %











Sirdaryo viloyati jahonning 44 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (14,4 %), XXRda (24,7 %), Afg‘onistonda (18,1 %), Qozog‘istonda (25,2 %), Turkiyada (2,9 %) va Ukraina (1,2 %) qayd etilgan.



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	25,9	39,1	29,2
 <i>Eksport</i>	14,4	15,9	18,3
<i>Import</i>	11,5	23,2	10,9
XXR	49,3	45,3	50,1
 <i>Eksport</i>	21,0	13,7	14,1
<i>Import</i>	28,3	31,6	36,0
Germaniya	3,2	1,9	1,7
 <i>Eksport</i>	-	0,0	0,0
<i>Import</i>	3,2	1,9	1,7
Qozog'iston	92,2	95,5	51,1
 <i>Eksport</i>	4,5	10,3	5,5
<i>Import</i>	87,7	85,2	45,6
Turkiya	14,1	14,0	5,9
 <i>Eksport</i>	8,1	8,1	2,6
<i>Import</i>	5,9	5,9	3,3
Ukraina	0,3	0,2	2,5
 <i>Eksport</i>	0,2	0,2	0,4
<i>Import</i>	0,1	0,0	2,1
Latvia	0,5	0,1	0,4
 <i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,3
<i>Import</i>	0,5	0,0	0,1
Fransiya	0,4	1,1	1,1
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,4	1,1	1,1

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 Qirg'iz Respublikasi	3,3	3,1	1,8
<i>Eksport</i>	0,7	0,8	0,8
<i>Import</i>	2,6	2,3	1,0
 Afg'oniston	34,8	62,6	36,7
<i>Eksport</i>	33,7	62,6	35,4
<i>Import</i>	1,1	0,0	1,3
 Belarus	0,6	0,5	0,4
<i>Eksport</i>	0,2	0,2	0,0
<i>Import</i>	0,4	0,3	0,4
 Hindiston	0,6	0,4	4,4
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,6	0,4	4,4
 BAA	0,3	0,0	0,0
<i>Eksport</i>	0,3	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
 Tojikiston	17,2	3,1	1,8
<i>Eksport</i>	4,6	2,4	1,6
<i>Import</i>	12,6	0,7	0,2
 Eron	3,0	1,2	1,2
<i>Eksport</i>	0,7	0,6	0,7
<i>Import</i>	2,3	0,6	0,5
 Pokiston	1,3	1,1	5,5
<i>Eksport</i>	1,1	0,8	4,5
<i>Import</i>	0,2	0,3	1,0
 Italiya	0,0	3,2	0,4
<i>Eksport</i>	-	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	3,2	0,4
 Polsha	0,2	0,9	0,1
<i>Eksport</i>	0,0	0,7	0,1
<i>Import</i>	0,2	0,2	0,0




SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-aprel, mln. AQSH doll.)*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 36,6 % ulush bilan 74,0 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,3 % ulush bilan 0,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,1 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 38,8 % ga kamaydi.









Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-aprel oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 19,5 % ga kamayib va jami TSA'dagi ulushi 56,9 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, 87,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport 26,9 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 60,3 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)


Rossiya TSA – 29,2 Eksport – 18,3 Import – 10,9		Qozog'iston TSA – 51,1 Eksport – 5,5 Import – 45,6	
Qirg'iz Respublikasi TSA – 1,8 Eksport – 0,8 Import – 1,0		Belarus TSA – 0,4 Eksport – 0,1 Import – 0,3	
Tojikiston TSA – 1,8 Eksport – 1,7 Import – 0,1		Ukraina TSA – 2,5 Eksport – 0,4 Import – 2,1	



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (14,4 %), Qozog'iston (25,2 %) hamda Ukraina (1,2 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 84,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 25,0 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 59,6 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2024- yil yanvar-aprel)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi 87,0 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 28,1 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-aprel ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	121,0	87,0	131,3	71,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	72,4	43,8	182,5	60,5	59,8	50,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	2,7	3,2	57,7	119,0	2,2	3,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	0,0	0,0	12,5 m.	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	9,2	0,0	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	3,0	2,0	92,5	65,6	2,5	2,3
Sanoat tovarlari	33,5	27,8	96,5	83,0	27,6	32,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1,7	1,9	107,8	112,6	1,4	2,2
Turli xil tayyor buyumlar	6,9	7,3	96,8	106,0	5,7	8,4
Xizmatlar	0,8	1,0	153,1	124,3	0,6	1,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,0 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (32,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (50,4 %) va turli xil tayyor buyumlar (8,4 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-aprel)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	33 108,0	52,8
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	3,3	129,5
Sabzavotlar va mevalar	10 591,4	114,0
Boshqa joyda tasniflanmagan oziq-ovqat mahsulotlari va pereparatlar	8,3	48,3
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	2,6	94,5
Noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 719,7	169,5
Qog'oz massasi va makulatura	955,6	73,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	523,4	36,2
Birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar	847,8	58,8
O'g'itlar (272 guruxiga kiritilgan o'g'itlardan tashqari)	353,6	0,0

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	19 282,5	75,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 551,0	38,9
Cho'yan va po'lat	5,0	0,7
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	6 592,0	2,1 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	6,4	8,4 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 764,2	120,5
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	7 166,9	115,6
Har xil tayyor buyumlar	103,5	34,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	0,1

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

2024- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlariga 26,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 30,9 % ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XRR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 89,4 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)


Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O‘sish sur‘ati, % da		Egallab turgan o‘rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	15 733,4	18 276,9	110,0	115,9	6	3
Turkiya	8 108,6	2 592,1	99,9	31,9	7	12
XXR	13 675,2	14 051,7	65,1	102,7	11	4
Qozog‘iston	10 474,8	5 470,1	2,2 m.	52,2	2	11
Afg‘oniston	62 616,4	35 257,9	185,6	56,3	3	8
Qirg‘iz Respublikasi	833,6	796,6	117,5	95,6	5	5
Tojikiston	2 384,1	1 621,4	51,8	68,0	12	7
BAA	68,7	36,9	25,6	53,7	14	10
Pokiston	2 491,5	4 511,0	162,5	181,1	4	1
Egipt	0,0	769,5	0,0	0,0	17	15
Eron	588,0	746,8	79,4	126,9	10	2
Belarus	178,5	99,2	97,3	55,7	8	9
Polsha	850,7	84,1	28,5 m.	9,9	1	13
Ozərbayjon	184,7	165,2	45,7	89,4	13	6
Turkmaniston	77,9	0,0	23,0	0,0	15	17
Buyuk Britaniya	96,1	0,0	0,0	0,0	16	16
AQSH	57,7	3,9	83,5	6,8	9	14




SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-aprel, mln.AQSH doll.)



Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



2023- y.

2024- y.

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 25,9 % bilan 22,5 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,4 % bilan 0,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-aprel oylarida 34,0 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,0 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (23,2), Pokiston (33,5 %), Qozog'iston (21,7 %), hamda XXR (3,6 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 10,6 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 12,2 % ni tashkil etdi.











MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-aprel, qiymati)

<p>Pomidor</p> <p>83,7 ming. AQSH dollari</p> <p>89,3 tonna</p> 	<p>Karam</p> <p>1 357,9 ming. AQSH dollari</p> <p>5 214,8 tonna</p> 	<p>Yeryong'oq</p> <p>19,5 ming. AQSH dollari</p> <p>8,7 tonna</p> 	<p>Piyoz</p> <p>3 317,4 ming. AQSH dollari</p> <p>15 527,4 tonna</p> 
<p>Uzum yangi yoki quritilgan</p> <p>295,2 ming. AQSH dollari</p> <p>230,2 tonna</p> 	<p>Grek yong'og'i</p> <p>13,6 ming. AQSH dollari</p> <p>8,9 tonna</p> 	<p>No'xat</p> <p>1 966,9 ming. AQSH dollari</p> <p>7 613,3 tonna</p> 	<p>Loviya</p> <p>2 267,2 ming. AQSH dollari</p> <p>1 650,2 tonna</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-aprel)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Eron	240,0	325,6	3,1
 Pokiston	13 912,0	3 548,4	33,5
 Qozog'iston	8 753,2	2 295,2	21,7
 XXR	556,5	380,3	3,6
 Afg'oniston	7 905,2	2 456,1	23,2
 Latviya	844,6	288,3	2,7
 Tojikiston	323,1	133,8	1,3
 Boshqa davlatlar	1 420,7	1 163,7	10,9


* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-aprel oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 33,5 %) tashkil qilmoqda.




SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

 2024- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 115,5 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 70,2 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (24,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (36,7 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (18,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,8 % ga kamaydi va 115,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	164,5	115,5	87,8	70,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	80,0	42,4	112,2	53,1	48,6	36,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	1,2	0,0	0,0	0,0	1,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	5,5	2,1	94,2	37,8	3,3	1,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	6,5	5,1	185,5	78,2	4,0	4,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	5,2	1,3	24,8 m.	25,8	3,2	1,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	29,9	21,7	101,9	72,4	18,2	18,8
Sanoat tovarlari	7,7	9,1	107,0	118,0	4,7	7,9
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	26,4	28,6	38,9	108,5	16,0	24,8
Turli xil tayyor buyumlar	2,3	2,9	104,9	120,4	1,4	2,5
Boshqa tovarlar	1,0	1,1	0,0	105,8	0,6	1,0




XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-aprel)


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	32 119,2	43,8
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2 386,0	74,0 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 506,5	38,6
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	2 561,4	133,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	200,4	6,1
Probka va yog'och-taxtalar	860,5	74,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	145,1	2,8 m.
Ko'mir, koks va briketlar	4 971,2	76,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 326,9	25,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	744,3	124,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	9 797,0	63,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4 360,9	92,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	4 056,2	63,7


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1575,2	82,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	651,0	44,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1561,7	167,7
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	4 783,9	2,1 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	1 779,1	75,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	10 351,3	62,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	12 207,2	2,5 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	352,2	20,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1 522,2	162,9
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	546,1	95,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	685,3	86,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	136,8	2,1 m.

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-aprel natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 52,2 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 46,1 % ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



 2024- yil yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyati 36 ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Germaniya	1 913,4	1 658,1	59,8	86,6	13	6
Rossiya	23 239,9	10 938,5	2,0 m.	47,0	4	12
XXR	31 611,6	36 014,5	111,8	113,9	8	5
Qozog'iston	85 248,3	45 633,4	120,8	53,5	7	11
Turkiya	5 925,2	3 264,1	104,7	55,1	9	10
Koreya Respublikasi	575,7	1 614,9	8,7	2,8 m.	16	4
Litva	0,3	0,0	0,1	0,0	18	20
Vengiriya	9,1	264,0	2,9 m.	29,0 m.	3	1
Bolgariya	0,0	309,7	4,3 m.	0,0	2	17
Turkmaniston	0,0	67,5	0,0	0,0	19	18
Belarus	345,9	287,0	87,6	82,9	11	8
Bangladesh	0,0	0,0	74,8	0,0	12	19
Italiya	3 242,5	338,9	7,5	10,4	17	15
Buyuk Britaniya	45,4	504,5	10,0 m	11,1 m.	1	2
Eron	613,4	482,2	26,1	78,6	14	9
Polsha	249,3	31,7	100,0	12,7	10	14
AQSH	45,5	428,8	-	9,4 m.	20	3
Afg'oniston	0,0	1 320,3	126,2	0,0	5	16
Azərbayjon	0,0	255,2	25,5	84,0	15	7
Qirg'iz Respublikasi	2 309,8	965,3	121,4	41,8	6	13



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-aprel, mln. AQSH doll.)



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 51,5 % bilan 44,6 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,3 % bilan 0,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunolari hajmi 28,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 8,5 % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 24,8 % ni tashkil qildi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-aprel)




2024- yil yanvar-aprel oylarida mashina va transport asbob-uskunolari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 mln. AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — 16,6 mln. AQSH dollari (58,2 %), Ukraina — 2,0 mln. AQSH dollari (7,0 %) va Hindiston – 3,8 mln. AQSH dollari (13,1 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 9,1 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,8 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 7,9 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-aprel)



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (4 783,9 ming. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (651,0 ming. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (1 561,7 ming. AQSH dollari), rangli metal (61,5 ming. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.